

7	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Burxanov A.U., Hamdamov O.N. Moliyaviy menejment. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, - 2020, 468 bet. 2. Тошмуродова Б.Э., Элмирзаев С.Э., Турсунова Н.Р. Молиявий менежмент. Дарслик. – Т.: “Иқтисод-молия”, - 2017. 350 бет. 3. Элмирзаев С. Корпоратив молия. Ўқув қўлланма / ЎзРО ва ЎМТВ. ТМИ. – Т.: “Иқтисод ва молия”, 2015. 272 бет. 4. Шимко П.Д. Международный финансовый менеджмент: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2019. – 494 стр. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, PF-60, 28.01.2022 2. Гладышева Е.В. Финансовый менеджмент: конспект лекций /ва. – Ростов н/Д: Феникс, 2014. – 158 с. 3. Breyli R., Mayers S. Prinsipi korporativnix finansov / Per. s angl. N.Barishnikovoy. – M.: ЗАО “Olimp-Biznes”, 2014. - 1008 s. 4. Свиридов О.Ю. Финансовый менеджмент: 100 экзаменационных ответов / О.Ю.Свиридов, А.А.Лысоченко. Ростов н/Д: Феникс, 2014. – 251 с./ (Зачет и экзамен). 5.
8	<p>Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O'quv uslubiy kengashining 2024-yil <u>28 avgust</u> dagi <u>1</u> -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ <u>FD-19-197</u>)</p>
9	<p>Fan/modul uchun ma'sul: N.X.Ruzibayeva – SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası dots. D.M.Malikova – SamISI “Investitsiya va innovatsiyalar” kafedrası dots.v.b., i.f.f.d. (PhD)</p>
10	<p>Taqrizchilar: Z.Sh.Haydarov – “Ipak Yo'li” AITB Umar mintaqaviy filiali boshqaruvchi maslahatchisi; S.S. Aliyeva – SamISI “Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.n.</p>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

**Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti rektori
M.E. Po‘latov**

2024-yil “ 28 ” 08

Ro‘yxatga olindi: № FD-18-10/1

2024-yil “ 28 ” 08

MOLIYAVIY MENEJMENT

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta‘lim sohasi: 410 000 – Biznes va boshqaruv

Ta‘lim yo‘nalishi: 60410500 – “Bank ishi va auditi”

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi FINMAN18		O'quv yili 2024 - 2025	Semestr 5-6	Kreditlar 8
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 4
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliyaviy menejment	120	120	240
2	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini moliyaviy jihatdan maqsadli boshqarishning muhim vositalarini, shuningdek, moliyaviy menejmentni korxonalarda yo'lga qo'yish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – uni o'rganuvchilarga fanning iqtisodiy mazmuni hamda korxonalarda faoliyatidagi ahamiyati, korxonada moliyalashtirish manbalari va usullarining o'ziga xos jihatlari, moliyaviy menejmentni tashkil etish bosqichlari, moliyaviy qarorlar qabul qilishda strategik moliyaviy tahlil va uning asosiy yo'nalishlari, korxonalarda strategik moliyaviy qarorlar va ularning qabul qilinishi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.</p> <p>Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p>			
3	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu: “Moliyaviy menejment” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari</p> <p>“Moliyaviy menejment” fanining predmeti. “Moliyaviy menejment” fanining obyekti. “Moliyaviy menejment” fanining maqsad va vazifalari. “Moliyaviy menejment” fanining rivojlanish tarixi. “Moliyaviy menejment” fanini o'rganish usullari. “Moliyaviy menejment” fanining tarkibiy tuzilishi. “Moliyaviy menejment” fanining mamlakatimizda rivojlanish xususiyatlari. “Moliyaviy menejment” fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi. “Moliyaviy menejment” fanini o'rganishdan kutiladigan natijalar. Moliyaviy menejmentning boshqaruv subyektlari. Moliyaviy menejmentlarning maqsad va vazifalari, huquq va javobgarliklari hamda ularga qo'yiladigan talablar.</p> <p>2-mavzu: Moliyaviy menejmentning konseptual asoslari</p> <p>Moliyaviy menejmentning iqtisodiy mohiyati. Moliyaviy menejmentning ahamiyati. Moliyaviy menejmentning korxona umumiy boshqaruv bilan o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy menejment tadbirkorlik faoliyatida takror ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz moliyaviy ta'minlashga qaratilgan boshqaruv faoliyati sifatida. Moliyaviy menejment xo'jalik subyektining strategik va taktik maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan moliyani boshqarish ilmi sifatida. Moliyaviy menejmentning asosiy maqsadi va vazifalari. Moliyaviy menejmentning funktsiya va tamoyillari. Moliyaviy menejmentning umumiy va maxsus funktsiyalari. Moliyaviy menejment konsepsiyalari. Pul oqimlari va pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyalari. Risk va daromadlilik konsepsiyasi. Portfel</p>			

nazariyasi va aktivlar narx shakllanishi modeli. Kapital tarkibi va dividend siyosati nazariyasi. Agentlik munosabatlari konsepsiyasi.

3-mavzu: Moliyaviy menejmentni tashkil etish mexanizmi va uning tashkiliy xususiyatlari

Moliyaviy menejment xizmatlari mohiyati, ahamiyati va turlari. Strategik, joriy va operativ moliyaviy menejment. Moliyaviy menejmentni tashkil etish bosqichlari: moliyaviy rejalashtirish; operativ boshqarish; moliyaviy nazorat. Moliyaviy menejment xizmatlarini amalga oshiruvchi bo'limlarning xodimlari, maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari. Turli korxonalarda moliyaviy menejment xizmatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy menejmentning tashkiliy xususiyatlari. Kichik korxonalarda moliyaviy menejment xizmatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Korxonalarda moliyaviy faoliyatni tashkil etish mexanizmi.

4-mavzu: Moliyaviy menejmentning matematik asoslari

Moliyaviy menejmentning matematik asoslari. Pul mablag'larining vaqt bo'yicha qiymati konsepsiyasining mohiyati. Pul mablag'larining joriy qiymati. Pul mablag'larining kelgusi qiymati. Foiz stavkalari turlari: oddiy, murakkab, oddiy hisob va murakkab hisob foiz stavkalari va ularning turli xil holatlarda o'ziga xos xususiyatlari. Diskont stavkasi uning o'ziga xos xususiyatlari. Annuitetlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Inflyasiya darajasini o'z ichiga olgan foiz stavkalari. Fisher formulasi va uning o'ziga xos xususiyati.

5-mavzu: Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish asoslari

Moliyaviy strategiyani belgilash orqali moliyaviy qarorlar qabul qilishni tashkil etish. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy qarorlar qabul qilishning dominant sohalarini tavsifi. Biznesning tashqi iqtisodiy muhiti. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy strategiya ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarining o'zaro ketma-ketligi. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda strategik moliyaviy tahlil va uning asosiy yo'nalishlari. Korxona moliyaviy strategiyasi prinsiplari. Korxonalarda strategik moliyaviy qarorlar va ularning qabul qilinishi.

6-mavzu: Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning maqsad va vazifalari. Moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish bosqichlari. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy rejalashtirish metodlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari. Moliyaviy rejalashtirish prinsiplari. Biznes-rejani tuzish tartibi va tarkibi. Budjetlashtirish moliyaviy rejalashtirish va xarajatlarni nazorat metodi sifatida. Moliyaviy prognozlashtirish va uning ahamiyati. Moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy tuzilishi.

7-mavzu: Korxona pul oqimlarini boshqarish

Korxona pul mablag'lari harakatini boshqarishning maqsadl va vazifalari. Pul mablag'larini boshqarishning ahamiyati. Korxonalarda faoliyat turlari bo'yicha pul oqimlari harakatini boshqarish. Korxonalarda pul fondlarini shakllantirish masalalari. Korxona pul fondlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari. Mahsulot sotishdan tushum va uning taqsimlanishi. Amortizasiya fondi va undan samarali foydalanish yo'llari. Pul mablag'larining joriy va kelgusi qiymati. Pul mablag'lari holatini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar.

8-mavzu: Kapitalni va moliyaviy ta'minot jarayonini boshqarish

Korxonalar faoliyatini moliyalashtirish manbalari. Korporativ tuzilma faoliyatida moliyaviy manbalarni tanlashga ta'sir etuvchi omillar. Korporativ tuzilmalar faoliyatini moliyalashtirishda kapitalning o'rtacha tortilgan va chegara bahosini aniqlash. Moliyaviy ta'minot jarayonida kapitalning optimal tarkibini belgilash. Korxona kapitali strukturalari va uni boshqarish. Korxona kapital qiymatini boshqarish. Xususiy kapital qiymati va uni aniqlash. Korxona qarz kapitali qiymati va uni aniqlash. Korxona xususiy kapitali va uning tarkibi hamda shakllanish manbalari. Korxona o'z moliyaviy resurslarining shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Korxona majburiyatlari, ularning shakllanish manbalari va foydalanish yo'nalishlari. Korxona kapitali rentabelligi. Moliyaviy leveridj koeffitsiyenti va moliyaviy richag samaradorligi. Korxona biznes qiymatini aniqlash va uni maksimalashtirish masalalari.

9-mavzu: Investitsion qarorlar qabul qilish asoslari

Real investisiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy asoslash. Moliyaviy investisiyalar portfelini shakllantirish, ular bo'yicha risk va daromadlilikni aniqlash. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investisiyalar va ular dafomadlilikini baholash. Moliyaviy aktivlarni real qiymatini baholash va bu bo'yicha moliyaviy qarorlar qabul qilish. Moliyaviy aktivlarni moliyalashtirish jarayonini boshqarish. Moliyaviy aktivlardan samarali foydalanish yo'nalishlari. Korxona investitsion siyosati mohiyati va ahamiyati. Korxona moliyaviy menejerining investitsion qarorlari. Korxonalarda investisiyalarni boshqarishning maqsad va vazifalari. Investitsion loyihalar samaradorligini baholash. Korxonalarda investitsion portfelnini boshqarish asoslari. Investitsion loyihalarda risk va daromadlilik darajasi. Uzoq va qisqa muddatli investitsion loyihalar samaradorlik ko'rsatkichlari: sof joriy qiymat; investitsion loyihaning qoplash davri; investitsion faoliyat foydasi ichki me'yori; investitsion faoliyat rentabelligi; investitsion loyihaning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi boshqa ko'rsatkichlar.

10-mavzu: Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish

Korxonalarda debitorlik va kreditorlik qarzlarining vujudga kelish sabablari. Korxonalarda debitorlik qarzlarini boshqarishning asosiy jihatlari va bosqichlari. Korxonaning debitorlik qarzlarini tahlil qilish masalalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish siyosat turlari va ulardan korxona uchun optimalini tanlash masalalari. Xaridorlarni baholash standartlarini shakllantirish va ularga qarzga mahsulot realizatsiya qilish shartlarini tabaqalashtirish masalalari. Debitorlik qarzlarini undirish tartibi. Debitorlik qarzlarini qayta investisiya qilishning zamonaviy shakllari va ulardan foydalanish masalalari. Debitorlik qarzlari hamda ularni undirish ustidan samarali nazorat o'rnatish tartibi.

11-mavzu: Korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish

Moliyaviy risklarni boshqarish moliyaviy menejmentning asosiy boshqaruv obyektlaridan biri sifatida. Moliyaviy risklarning iqtisodiy mohiyati, turlari va bozor iqtisodiyoti sharoitida risklarni boshqarishga bo'lgan zarurat. Moliyaviy risklarni boshqarishning maqsad va vazifalari. Moliyaviy risklarni boshqarish prinsiplari va metodlari. Moliyaviy risklarni boshqarish metodlari. Korxona moliyaviy resurslarga ta'sir etuvchi xavf-xatarlarni minimallashtirish. Risklarni boshqarishda diversifikatsiya, limitlashtirish, sug'urtalash, axborotlar yig'ish, o'z-

o'zini sug'urtalashning ahamiyati. Moliyaviy risklarni boshqarish mexanizmlari. Moliyaviy risklarni baholovchi ko'rsatkichlar. Moliyaviy risklarni pasaytirish yo'llari. Moliyaviy risklarni baholash modellari.

12-mavzu: Korxonalarda xarajatlarni boshqarish

Korxonalarda xarajatlarni boshqarishning mohiyati va ahamiyati. Xarajatlarni boshqarish maqsad va vazifalari. Korxonalarda xarajatlarni boshqarish funksiyalari va tamoyillari. Korxonalarda xarajatlarni boshqarish bosqichlari. Korxona ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

Korxona xarajatlarining tasniflanishi. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish yo'llari. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish zararsizlik nuqtasi. Xom ashyo sotib olish va ularni saqlash xarajatlarini optimallashtirish masalalari. Xarajatlarni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilish masalalari. Korxona xarajatlarining samaradorlik ko'rsatkichlari. Korxonalarda xarajatlarni boshqarishda moliyaviy nazoratning o'rni va ahamiyati.

13-mavzu: Korporativ tuzilmalarda soliq menejmentini tashkil etish

Soliq menejmentining iqtisodiy mohiyati, tasniflanishi va vazifalari. Soliq menejmentining tarkibiy qismlari. Korxona soliq menejmentining asosiy vazifalari. Korporativ soliq menejmentining tashkiliy yo'nalishlari va unda soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish. Soliq menejmentini amalga oshiruvchi subyektlar. Korxonalarda soliq munosabatlarini boshqarish. Soliqlarning korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta'sirini baholash va kamaytirish yo'llari. Korporativ tuzilmalarda soliq risklarini boshqarish. Soliq xatolarining asosiy turlari. Korxonalarda soliq xavfsizligini ta'minlash masalalari. Ichki soliq nazorati va unda e'tibor qaratiladigan jihatlar. Korxonalarda soliq to'lovlarini rejalashtirish. Soliqlarni optimallashtirish va minimallashtirish orqali foydani maksimallashtirish yo'llari. Korxonalarda soliq yukini aniqlash va uning moliyaviy holatga ta'sirini kamaytirish masalalari. Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish yo'llari.

14-mavzu: Korxonalarda narx shakllanish jarayonini boshqarish

Korxonalarda narx siyosatining maqsad va asosiy yo'nalishlari. Korxonalar narx siyosatiga ta'sir etuvchi omillar. Korxonalar narx siyosatida xaridorlar psixologiyasini hisobga olish. Narxlarni boshqarish darajalari: tarmoq doirasida, tovar-bozor strategiyalari doirasida va savdo bitimlari doirasida. Narxlarni shakllantirish metodlari. Narx shakllanishiga soliqlarning ta'sirini kamaytirish. Narx siyosatining korxonalar moliyaviy holatiga ta'siri. Narx shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Narx strategiyasini shakllantirish bosqichlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda narx shakllanish jarayoni bosqichlari. Transfert narxlar shakllanishi va ularni boshqarish. Transfert narxlarni shakllanish jarayonini boshqarishning maqsad va vazifalari. Transfert narx shakllanish metodlari. Transfert narxlarini shakllantirish muammolari. Transfert narxlarini shakllantirishda soliq munosabatlari.

15 – mavzu: Korporativ tuzilmalarda inqirozga qarshi boshqaruvning tashkiliy xususiyatlari

Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv mazmun-mohiyati. Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvning bosh maqsadi. Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalari.

Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv strategiyasi. Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv bosqichlari. Korxonalarda inqiroz holatlarini baholovchi moliyaviy ko'rsatkichlar. Korxonalarda inqiroz holatlarining kelib chiqish sabablari va oldini olish masalalari. Korxona moliyaviy natijasiga salbiy ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Korxonalarda moliyaviy sog'lomlashtirish masalalari. Korxona aktivlarini qayta tarkiblash masalalari.

16 – mavzu: Korxonalar faoliyatida bankrotlik amaliyoti va uning tashkiliy xususiyatlari

Bankrotlik va korxonalarning iqtisodiy beqarorligi tushunchasi. Bankrotlik holati yuzaga kelish sabablari. Korxonalar bankrotligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Korxonalarda bankrotlik holatini prognoz qilish. Bankrotlikda qo'llaniladigan jarayonlar. Bankrotlik me'zonlari. Bankrotlikning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar. Korxonalarning to'lovga layoqatlilik darajasi. Bankrotlik holatini baholovchi moliyaviy ko'rsatkichlar.

III. Amaliy mashg'ulotlarlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Moliyaviy menejment" fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari.
2. Moliyaviy menejmentning konseptual asoslari.
3. Moliyaviy menejmentni tashkil etish mexanizmi va korxonalarda tashkiliy xususiyatlari.
4. Moliyaviy menejmentning matematik asoslari.
5. Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilish asoslari.
6. Moliyaviy rejalashtirish va byudjetlashtirish.
7. Korxona pul oqimlarini boshqarish.
8. Kapitalni va moliyaviy ta'minot jarayonini boshqarish.
9. Investision qarorlar qabul qilish asoslari.
10. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini boshqarish.
11. Korxonalarda moliyaviy risklarni boshqarish.
12. Korxonalarda xarajatlarni boshqarish.
13. Korporativ tuzilmalarda soliq menejmentini tashkil etish.
14. Korxonalarda narx shakllanish jarayonini boshqarish.
15. Korporativ tuzilmalarda inqirozga qarshi boshqaruvning tashkiliy xususiyatlari.
16. Korxonalar faoliyatida bankrotlik amaliyoti va uning tashkiliy xususiyatlari.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Turli korxonalarda moliyaviy menejment xizmatlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Moliyaviy menejmentning prinsiplari.
3. Turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda moliyaviy menejmentni tashkil etish.
4. Moliyaviy menejer faoliyatida oddiy va murakkab foizdan foydalanish.
5. Korxonalarda strategik rejalashtirish xususiyatlari.
6. Xususiy va qarz kapitalining bahosi.
7. Moliyaviy aktivlarni baholash xususiyatlari.
8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarining yuzaga kelishini oldini olish yo'llari.

	<p>9. Korxonalarda pul mablag'larining vaqtinchalik qiymati konsepsiyasi.</p> <p>10. Korxonalarda investision loyihalarni baholash xususiyatlari.</p> <p>11. Korxonalarda moliyaviy risklarni baholash usullari.</p> <p>12. Korxonalarda xarajatlar samaradorligi baholash.</p> <p>13. Korxonalarda narx siyosatini samarali ishlab chiqish.</p> <p>14. Korxonalarda ichki soliq nazoratini tashkil etish.</p> <p>15. Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqarish yo'nalishlari.</p> <p>16. Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish.</p> <p>17. Korxonalarda narxlarni shakllantirish metodlari</p> <p>18. Korporativ tuzilmalarda moliyaviy strategiya ishlab chiqish va amalga oshirish.</p> <p>19. Korxonalarda moliyaviy qarorlar qabul qilishda strategik moliyaviy tahlil va uning asosiy yo'nalishlari.</p> <p>20. Moliyaviy prognozlashtirish va uning ahamiyati.</p>
4	<p>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - moliyaviy menejmentning mamlakat iqtisodiyotidagi va xo'jalik subyektlari faoliyatidagi o'rni o'rganish; moliyaviy menejmentning asosiy konsepsiyalarini o'rganish; korxonalarda moliyaviy strategiyani belgilash va moliyaviy qarorlar qabul qilishni o'rganish; korxona kapitalidan samarali foydalanish yo'llarini o'rganish; moliyaviy menejment sohasi bo'yicha rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalari va xususiyatlari xaqida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i> kerak; - korxonalarda moliyaviy rejalashtirishning o'ni va elementlari; korxonalarda moliyaviy boshqaruv xususiyatlari; korxonalarda pul oqimlarini boshqarish xususiyatlari; moliyaviy qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklar ta'sirini baholash; korxonalar aktivlaridan samarali foydalanishni baholash; mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirishdagi muammolarni <i>bilishlari va ulardan foydalana olishi</i> kerak; - korxonalarning soliq majburiyatlarini boshqarish va optimallashtirish; korxonalarda investision faoliyatni boshqarish; ichki moliyaviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish tartibi; inqirozga qarshi chora-tadbirlar mexanizmini ishlab chiqish va amalga oshirish; korxona faoliyatidagi moliyaviy risklarning ta'sirini kamaytirish bo'yicha <i>malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi</i> kerak.
5	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blits-so'rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar namoyishi; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
6	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, YaN bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.</p>